

Din Syaosin: Xitoy O'zbekistonga yaxshi qo'shni va yaxshi do'st sifatida qaraydi



Joriy yilda kutilayotgan ikki tomonlama muhim tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish doirasida tashkil etilgan ushbu tadbirda Xitoy va O'zbekistonning siyosiy-diplomatik doiralari, yetakchi tahlil markazlari vakillari ishtirok etdi.

Xitoy zamonaviy xalqaro munosabatlar akademiyasining Yevroosiyo instituti direktori Din Syaosin ushbu anjumanda o'tgan 30 yil ichida Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar rivojlanib, yangi cho'qqilarga ko'tarilganini alohida ta'kidladi:

-2012-yilda Xitoy va O'zbekiston o'rtasida strategik sheriklik munosabatlari o'rnatilgan bo'lsa, 2023-yilda har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi.

Xitoy-O'zbekiston munosabatlari tez va silliq rivojlanib borayotganining sababi shundaki, ular diplomatik munosabatlar o'rnatilgandan buyon mamlakatlar teng huquqlilik, ichki ishlarga aralashmaslik va o'z taraqqiyot yo'lini hurmat qilish tamoyiliga doimo amal qilib kelgan mustahkam poydevorga ega.

Xitoy O'zbekistonga yaxshi qo'shni va yaxshi do'st sifatida qaraydi hamda ikkitomonlama munosabatlarini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Bundan tashqari, Xitoy-O'zbekiston hamkorligining o'ziga xos xususiyati siyosiy o'zaro ishonchning yuqori darajasidir. Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylanganidan beri Si Szinpin bilan ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarda strategik yetakchi rol o'ynagan yaxshi ish munosabatlari va shaxsiy do'stlikni o'rnatdilar.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik hamkorlikni chuqurlashishining yana bir muhim omili shundaki, so'nggi 30 yil ayniqsa so'nggi besh yil ichida ichida Xitoy-O'zbekiston iqtisodiy hamkorligi o'zaro manfaat

asosida, rivojlandi. Xitoy hozirda O'zbekistonning eng yirik investori va eng yirik savdo sherigi hisoblanadi.

Qolaversa, xalqaro vaziyat notinch, mintaqaviy mojarolar birin-ketin kuchayib borayotgan, insoniyat jiddiy tanlov oldida turgan bir sharoitda Xitoy va O'zbekiston o'zaro yordam va bir-birini qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini ko'rsatmoqda. Mamlakatlarimiz ko'p qirralilikni qo'llab-quvvatlaydi, xalqaro maydonda yaqindan hamkorlik qiladi, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni saqlash bo'yicha sa'y-harakatlarni birgalikda muvofiqlashtiradi. 30 yillik tarixga nazar tashlab, kelajakka boqar ekanimiz, biz Xitoy-O'zbekiston munosabatlari ming yillik tinch-totuv yashash merosiga asoslangan yaxshi qo'shnilar, yaxshi sheriklar va yaxshi birodarlar o'rtasidagi munosabatlar ikki davlat xalqlari uchun manfaat va katta yutuqlarga olib kelishiga ishonamiz.

Eslatib o'tamiz, SMTI tomonidan Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi Yevropa va Osiyo ijtimoiy taraqqiyot instituti Taraqqiyot tadqiqot markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan konferensiyada siyosat, xavfsizlik, savdo-investitsion va madaniy-gumanitar sohalaridagi ikki tomonlama hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.



Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi Yevropa va Osiyo ijtimoiy taraqqiyot instituti Taraqqiyot tadqiqot markazi - Yevroosiyo mintaqasidagi mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tahlil qilish va o'rganishga qaratilgan Xitoydagi yetakchi tadqiqot instituti. U 1989 yilda tashkil etilgan. U XXR rahbariyatiga Xitoy va Yevroosiyo makonidagi mamlakatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida axborot, maslahatlar va siyosiy tavsiyalar beradi.

Manba